O‘zbekiston-Rossiya: ilmiy hamkorlikni kengaytirish

2019-yil 15-yanvar kuni O‘zR FAda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi ikki tomonlama strategik hamkorlik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2885-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda 2018-yilda Rossiya Fanlar akademiyasi prezidenti A.M.Sergeyevning O‘zbekistonga tashrifi davomida ikki davlat Fanlar akademiyalari o‘rtasida ilmiy hamkorli aloqalarini yanada mustahkamlash va kengaytirish bo‘yicha tuzilgan Kelishuvga asosan qishloq xo‘jaligi masalalariga bag‘ishlangan seminar o‘tkazildi.

Seminarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari, yetakchi mutaxassis olimlar, agrar va qishloq xo‘jaligi sohasi va Fermerlar uyushmasi vakillari, Toshkent agrar universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etdi. Shuningdek, **Doljenko Viktor Ivanovich (**Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi, o‘simliklarni himoya qilish va ekotoksikologiya bo‘yicha mutaxassis, pestitsidlarni biologik tartibga solish markazi rahbari), **Zavalin Aleksey Anatolyevich (**Rossiya Fanlar akademiyasi qishloq xo‘jaligi bo‘yicha akademik-kotib o‘rinbosari, qishloq xo‘jaligi, melioratsiya, suv va o‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i), **Lebedeva Marina Pavlovna (**qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor, minerologiya va tuproq mikro-morfologiyasi laboratoriyasi ilmiy xodimi) ham qatnashishdi.

Seminar ishida o‘simliklarni himoya qilish, qurg‘oqchilik, dehqonchilik, sho‘rlangan yerlarda ekinlarni yetishtirish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish, shuningdek,

tuproqning tabiiy unumdorligini tiklash va yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalar tinglandi.

Ushbu seminar o‘zaro tajriba va fikr almashish imkonini beradi hamda ikki davlat qishloq xo‘jaligi sohasida yanada samarali hamkorlik uchun zamin yaratadi.